

OILA MUHITI VA BOLADA GENDER TUSHUNCHALARINING RIVOJLANISHI



<https://doi.org/10.24412/2181-1784-2026-20-686-688>

Ibragimova Shaxzoda Dilshod qizi

Aniq va ijtimoiy fanlar universiteti 1 kurs magistranti

Nig‘matova Shohsanam Nabijon qizi

*Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universiteti,
Ijtimoiy fanlar fakulteti, “Psixologiya” kafedrası dotsent v.b.,
Psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (Phd)*

Annotatsiya: Ushbu tezis ishida oila psixologiyasi va gender tadqiqotlari o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik, ularning zamonaviy jamiyatdagi ahamiyati hamda oilaviy munosabatlar tizimiga ta’siri tahlil qilinadi. Tadqiqotning maqsadi — oilaviy rollarni shakllanishida gender stereotiplarining psixologik omillarini aniqlash va ularning ijtimoiy-madaniy kontekstdagi o‘zgaruvchanligini o‘rganishdir. Ishda empirik va nazariy usullar uyg‘un qo‘llanilib, turli yoshdagi oilaviy juftliklar hamda turmush o‘rtoqlar o‘rtasidagi psixologik iqlim, kommunikatsiya strategiyalari va gender rollarining ta’siri tahlil qilinadi. Tadqiqot natijalari oila psixologiyasi sohasi mutaxassislari uchun muhim amaliy tavsiyalar berishga, shuningdek, gender tenglik tamoyillarini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: oila muhiti, gender tushunchalari, gender rollari, ota-ona munosabatlari, psixologik iqlim, tarbiyaviy yondashuvlar.

Abstract: This thesis analyzes the interrelationship between family psychology and gender studies, their significance in modern society, and their impact on the system of family relations. The aim of the study is to identify the psychological factors of gender stereotypes in the formation of family roles and to examine their variability within a socio-cultural context. The research combines empirical and theoretical methods, analyzing the psychological climate, communication strategies, and the influence of gender roles among married couples of different age groups. The results of the study provide important practical recommendations for specialists in the field of family psychology and contribute to strengthening the principles of gender equality.

Keywords: family psychology, gender studies, gender stereotypes, family roles, marital relations, gender equality.

Аннотация: В данной тезисной работе анализируется взаимосвязь между психологией семьи и гендерными исследованиями, их значение в современном обществе, а также влияние на систему семейных отношений. Цель исследования заключается в выявлении психологических факторов гендерных стереотипов в процессе формирования семейных ролей и изучении их изменчивости в социокультурном контексте. В работе использован комплекс эмпирических и теоретических методов, проведён анализ психологического климата, коммуникативных стратегий и влияния гендерных ролей в супружеских парах различных возрастных групп. Результаты исследования направлены на разработку практических рекомендаций для специалистов в области психологии семьи, а также на укрепление принципов гендерного равенства.

Ключевые слова: психология семьи, гендерные исследования, гендерные стереотипы, семейные роли, супружеские отношения, гендерное равенство.

Oiladagi muhit, unda sodir bo‘luvchi turli psixologik hodisalar ma’lum qonunlarga bo‘ysunib bu qonunlarning qilishi guruh tarkibiga bog‘liqdir. Shu

munosabat bilan oila tarkibini guruhiy jarayonlar manbai sifatida maxsus tahlil obyektiga aylantirish zaruriyati tugʻiladi.

Tarkibiga koʻra oila klassifikatsiyasi va oilada boʻlib oʻtuvchi jarayonlar B.M.Karimovanning “Oilaviy hayot psixuslubidan koʻra katta guruh ichida amal qiluvchi meʼyoriy xulq shakllari koʻproq kuzatiladi. B.A.Karimova sotsiologik adabiyotlar tahlilidan kelib chiqqan holda aʼzolari tarkibiga koʻra quyidagi oila turlarini farqlab oʻtadi:

1. Katta, boʻlinmagan oila. Katta boʻlinmagan oila. Bunday oilada tarkibiga bir necha avlod vakillari kirib ular bir makonda yaʼni bitta hovlida xonadonda birgalikda yashaydilar. “Odatda katta oilaning” “kattasi” boʻladi, yaʼni, keksa otaxon va onaxon yoki ulardan biri boshqa bir yoki bir nechta er-xotinlar oilasini ularning farzandlari bilan birga boshqarib, “boshini qovushtirib” yashaydi”. Eʼtibor berilsa Karimova tomonidan boʻlinmagan oilaga berilgan tarifda oila boshqaruvi misolida hududimizga xos boʻlgan milliy xususiyatlar alohida koʻrsatib oʻtiladi.

2. Nuklear (yaxlit,yadro) oila. Nuklear oila. Bunday oila turi iqtisodiy jihatdan rivojlangan hududlar va yirik shaharlarga xos tuzulmadir. Nuklear oilada odatda 2 avlod vakillari er-xotin va ularning farzandlari istiqomat qiladi. Subyektning oila kabi kichik guruhga aʼzoligi tufayli yuzaga keluvchi sotsial identifikatsiya holati jinsiy identifikatsiya jarayoni bilan uygʻunlashib ketadi [1.23].

Ijtimoiy munosabatlarga kirishish davomida bola oiladagi oʻz jinsiga mansub kattalar xulq atvorini oʻziga namuna qilib oladi. Natijada maʼlum guruh doirasida yashovchi oʻxshash statusli aʼzolar xulq atvori bir-birinikiga oʻxshab boradi. Qarindosh-urugʻlari koʻp oilalarni oʻz shakli shamoiliga koʻra katta guruhga oʻxshatish mumkin. Natijada boʻlinmagan oilada shakllangan bola xulqida shaxsning induvidual uslubidan koʻra katta guruh ichida amal qiluvchi meʼyoriy xulq shakllari koʻproq kuzatiladi. Shu sababli taʼlim va tarbiya tizimida psixologik xizmatni tashkil etishda boʻlinmagan oilada ulgʻayayotgan shaxsga xos bunday xususiyatlar inobatga olinishi lozim. [2.48].

Jamiyatda yashovchi fuqarolar jinsiy belgilariga koʻra 2 guruhga boʻlinar ekan, ushbu guruhlariga xos norma va qoidalar har qanday jamoada oʻz aksini topadi. Erkaklar mavjud boʻlmagan xotin-qizlar guruhida ayollarga xos xislatlar qoʻpollashib ketishi holatlarini ayollar qamoqxonalari misolida tasvirlashimiz mumkin. Oʻzbekiston davlat mustaqilligini qoʻlga kiritib rivojlanishning oʻz modelini tanlab olgandan soʻng mamlakatdagi ijtimoiy iqtisodiy va siyosiy vaziyat tubdan oʻzgardi. Gender rivojlanishida ham sezilarli ijobiy oʻzgarishlar roʻy berdi [3.42].

Ijtimoiy psixologiya shaxs xulqi, xatti-harakati qanday qonunlarga boʻysinishi, uning shaxslararo munosabatlar sistemasida olgan taʼsirlarining inson ongida qanday aks etishini oʻrganar ekan, ijtimoiy ustanovka muammosini muhim psixologik taʼsir mexanizmi sifatida qaraydi. Ijtimoiy ustanovka shaxs xulq atvorining ichki anglanmagan yoki qisman anglangan motivlariga kiradi. Yaʼni ijtimoiy ustanovka shaxsning turli ijtimoiy obyektlariga nisbatan munosabat

bildirishning ichki mexanizmidir shu obyektlar bilan ishlashga ularni baholashga hamda ma'lum tarzda idrok qilishga tayyorgarlik holatidir [4.35].

Psixologik hodisalarni tadqiq etishda “Jins bilan bog‘liq farqlar” tushunchasi qo‘llaniladi. Jahon psixologiyasida bu tushunchani “Gender farqlar” deb ataladi. Gender farqlar ushbu jamiyat fuqarolari ongida u yoki bu jins vakilidan ma'lum kuzatuvlar tizimini yaratadi. Tadqiqotlarimizda qiz bola va yigitlarning biror bir kasbga ega bo‘lishlari masalasiga e’tiborni qaratdi. Buning uchun “Qiz bolani kasbga ega bo‘lishi mumkinmi?” savolini berdik. Keyingi navbatda oilali erkak kishilar, so‘ngra esa yigitlar qiz bolaning biror bir kasb egallashiga hayrixoh ekanlar. Demak bu masalada shuni ta’kidlash mumkinki ijtimoiy va oilaviy hayot kechishi uchun nafaqat erkak kishining balki ayol kishining ham biror kasb egasi bo‘lishi ma’qulligini barcha toifa respondentlarimiz tushunar ekanlar. Chunki inson kim bo‘lishidan qat’iy nazar erkak kishi bo‘ladimi, ayol kishi bo‘ladimi ilk o‘spirinlik paytidan boshlab qaysidir kasbni egallab olsa hayotda qoqilmaydi. Shuning uchun bo‘lsa kerak, respondentlarimizning aksariyat qismida bu masalaga “Ha” deb yondashish ko‘rindi. “Yo‘q” javoblarning tanlanishi holatini kuzatsak bu o‘rinda erkak kishilar ayolning qiz bolaning biror kasb egallashiga hayrixoh emaslar (10,6% yigitlar, 6,0% oilali erkaklar) uning kasbisiz ham yashashi mumkinligini uqtirganlar. Biz qiz bola shaxsi uchun kasb egallash muhimmi yoki oliy ma'lumot olish muhimmi masalalarini solishtirish maqsadida “Qiz bolani oliy ma'lumot olishi muhimmi?” savolini ham berdik. “Ha” javobi yuzasidan olingan natijalarni diqqat bilan kuzatsak 2-o‘rinda bu masalaga ayollar befarq emas ekanliklari ko‘rinadi, chunki ularning 71,6% lari shu javobni belgilaganlar [5.48].

Qolaversa, shuni ta’kidlashni istar edikki, keyingi yillarda oilaviy munosabatlarda kuzatilayotgan juda ko‘p noxushliklar asosida iqtisodiy yetishmoqchilik omili ham yotadi. Agar qiz bola oliy ma'lumotni egallasa “har holda kelajakda noni butun bo‘ladi” kabi qarash ham yo‘q emas. Tadqiqot natijalaridan yana shunday tomonlar ko‘rinadiki oilali erkaklarning 55,5% lari “ha”ni tanlasa, 36,5% “yo‘q”ni tanlaganlar. Demak oliy ma'lumot olish va kasb egallash masalasi yuzasidan barcha toifa respondentlar 1-navbatda oila boquvchisi sifatida erkak kishini ko‘radilar va shuning uchun ham yigit kishining oliy ma'lumot olishi muqarrar hodisa sifatida kuzatiladi. Qiz bola shaxsiga nisbatan esa bunchalik hayrixohlik kuzatilmaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Minuchin, S. Families and Family Therapy. Cambridge: Harvard University Press, 1974.
2. Bowen, M. Family Therapy in Clinical Practice. New York: Jason Aronson, 1978.
3. V. Conjoint Family Therapy. Palo Alto: Science and Behavior Books, 1967.
4. Nichols, M., & Schwartz, R. Family Therapy: Concepts and Methods. 11th ed. Boston: Pearson, 2019.
5. Olson, D. H., & DeFrain, J. Marriages and Families: Intimacy, Diversity, and Strengths. New York: McGraw-Hill, 2011.